



*2024- yil yanvar-iyul oylari  
uchun dastlabki ma'lumot*

# **QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASI**

*Tashqi iqtisodiy faoliyat va savdo  
statistikasi bo'limi:  
Tel. (75) 221-44-28*



## TASHQI SAVDO AYLANMASI



Mamlakatimizda olib borilayotgan iqtisodiy islohotlar xorijiy davlatlar bilan savdo aloqalarining jadal o'sishiga xizmat qilmoqda. Xususan, mamlakatning eksport salohiyatini oshirish bo'yicha qabul qilingan qarorlar mahalliy kompaniyalarga tashqi bozorlarda ko'proq tajriba orttirishga imkon beradi. Pirovardida ular jahon savdosida raqobatdosh ustunlikka ega bo'ladi.

Qashqadaryo viloyatida bu borada so'nggi yillarda amalga oshirilayotgan eksportni rag'batlantirish, importni optimallashtirish va umuman olganda tashqi savdo muvozanatini ta'minlash maqsadida amalga oshirilgan chora-tadbirlar natijasida, 2024-yil yanvar-iyul oylarida viloyatning tashqi savdo aylanmasi (matnda TSA) 758909,6 ming AQSH dollariga yetdi va 2023- yilning yanvar-iyul oylariga nisbatan 413310,1 ming AQSH dollariga yoki 2,2 martaga ko'paydi.



## TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024- yil yanvar-iyul oylarida ming AQSH dollari)



### Tashqi savdo aylanmasi

2024- y.: 758909,6 **+2,2 m.**  
(2023- y.: 345599,5)




**Saldo**  
2024- y.: -97826,2  
(2023- y.: 103693,8)




### Eksport

2024- y.: 330541,4 **+147,1 %**  
(2023- y.: 224646,6)



### Import

2024- y.: 428367,9 **+3,5 m.**  
(2023- y.: 120952,8)













**Tashqi savdo aylanmasi** – muayyan davr uchun mamlakat eksporti va importi qiymatining miqdori hisoblanadi. Tovarlarining tashqi savdo statistikasida O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududiga olib kirish (import) yoki O‘zbekiston Respublikasi bojxona hududidan olib chiqish (eksport) natijasida mamlakat material resurslari zaxiralariga qo‘shiladigan yoki ulardan ayirib tashlanadigan tovarlar hisobi tashqi savdo umumiy hisob tizimi asosida yuritiladi.



TSAda eksport hajmi 330541,7 ming AQSH dollariga (147,1 % ga ko‘paydi) va import hajmi 428367,9 ming AQSH dollariga (3,5 martaga ko‘paydi). Hisobot davrida -97826,2 ming AQSH dollari qiymatida manfiy tashqi savdo balansi qayd etildi.

### QASHQADARYO VILOYATI TASHQI SAVDO AYLANMASIDA ENG YUQORI ULUSHGA EGA BO‘LGAN DAVLATLAR (2024- yil yanvar-iyul oylarida ming AQSH dollari)












XXR	TURKIYA	AQSH	Rossiya Federatsiyasi	Niderlandiya
TSA – 217915,5	TSA – 119775,1	TSA– 91471,9	TSA – 66790,0	TSA – 36139,6
Eksport: 14582,4 Import: 203333,1	Eksport: 50087,6 Import: 69687,5	Eksport: 88845,4 Import: 2626,5	Eksport: 50219,7 Import: 16570,3	Eksport: 64,6 Import: 36075,0
 28,7 %	 15,8 %	 12 %	 8,8 %	 4,8 %
Germaniya	Pokiston	BAA	Qozog‘iston	Ekvador
TSA – 29004,6	TSA – 25907,1	TSA – 23437,7	TSA – 17662,1	TSA – 16145,5
Eksport: 224,7 Import: 28779,9	Eksport: 24596,8 Import: 1310,3	Eksport:16570,4 Import: 6867,3	Eksport: 14054,0 Import: 3608,1	Eksport: 0,0 Import: 16145,5
 3,8 %	 3,4 %	 3,1%	 2,3 %	 2,1 %

Qashqadaryo viloyati jahonning 76 mamlakati bilan savdo aloqalarini amalga oshirib kelmoqda. TSAning nisbatan salmoqli hissasi XXR (28,7 %),AQSH (12,0 %), Turkiya (15,8 %), Rossiya Federatsiyasi (8,8%), Niderlandiya (4,8 %),BAA (3,1 %), Pokiston (3,4 %),Germaniya (3,8%),Ekvador (2,1 %),Qozog‘iston (2,3 %) qayd etilgan.













## QASHQADARYO VILOYATINING YIRIK HAMKOR DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI DINAMIKASI

(yanvar-iyul oylarida ming AQSH dollari)

	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	<b>XXR</b>	<b>61309,4</b>	<b>43551,3</b>	<b>217915,5</b>
	<i>Eksport</i>	12215,7	10953,0	14582,4
	<i>Import</i>	49093,7	32598,3	203333,1
	<b>Rossiya Federatsiyasi</b>	<b>38686,7</b>	<b>43883,4</b>	<b>66790,0</b>
	<i>Eksport</i>	24829,6	33342,4	50219,7
	<i>Import</i>	13857,1	10541,0	16570,3
	<b>Turkiya</b>	<b>80125,7</b>	<b>62902,6</b>	<b>119775,1</b>
	<i>Eksport</i>	59491,5	53428,3	50087,6
	<i>Import</i>	20634,2	9474,3	69687,5
	<b>Niderlandiya</b>	<b>1070,4</b>	<b>849,7</b>	<b>36139,6</b>
	<i>Eksport</i>	4,8	0,0	64,6
	<i>Import</i>	1065,6	849,7	36075,0
	<b>Ekvador</b>	<b>205,8</b>	<b>141,6</b>	<b>16145,5</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	0,0
	<i>Import</i>	205,8	141,6	16145,5
	<b>AQSH</b>	<b>495,9</b>	<b>1484,6</b>	<b>91471,9</b>
	<i>Eksport</i>	4,1	15,8	88845,4
	<i>Import</i>	491,8	1468,8	2626,5
	<b>Pokiston</b>	<b>4668,1</b>	<b>11988,7</b>	<b>25907,1</b>
	<i>Eksport</i>	4483,3	10983,8	24596,8
	<i>Import</i>	184,8	1004,9	1310,3
	<b>Germaniya</b>	<b>12374,4</b>	<b>1458,2</b>	<b>29004,6</b>
	<i>Eksport</i>	1019,7	259,0	224,7
	<i>Import</i>	11354,7	3999,2	28779,9
	<b>BAA</b>	<b>698,5</b>	<b>25778,2</b>	<b>23437,7</b>
	<i>Eksport</i>	617,2	25748,5	16570,4
	<i>Import</i>	81,3	29,7	6867,3
	<b>Italiya</b>	<b>2227,9</b>	<b>2104,6</b>	<b>1848,3</b>
	<i>Eksport</i>	723,4	782,7	556,1
	<i>Import</i>	1504,5	1321,9	1292,2




	Davlatlar	2022- y.	2023- y.	2024- y.
	<b>Eron Islom Respublikasi</b>	<b>13326,2</b>	<b>5794,9</b>	<b>8037,0</b>
	<i>Eksport</i>	10233,3	4575,6	6126,8
	<i>Import</i>	3092,9	1219,3	1910,2
	<b>Polsha</b>	<b>2148,6</b>	<b>10106,6</b>	<b>7008,3</b>
	<i>Eksport</i>	1928,3	9311,8	6874,3
	<i>Import</i>	220,3	794,8	134,0
	<b>Tojikiston</b>	<b>5037,7</b>	<b>3091,5</b>	<b>7427,4</b>
	<i>Eksport</i>	4771,8	2795,7	6995,6
	<i>Import</i>	265,9	295,8	431,8
	<b>Qozog'iston</b>	<b>21241,8</b>	<b>19019,6</b>	<b>17662,1</b>
	<i>Eksport</i>	10276,2	8404,4	14054,0
	<i>Import</i>	10965,6	10615,2	3608,1
	<b>Hindiston</b>	<b>1060,7</b>	<b>5370,5</b>	<b>5779,4</b>
	<i>Eksport</i>	800,0	4118,9	1011,5
	<i>Import</i>	260,7	1251,6	4767,9
	<b>Yaponiya</b>	<b>3547,7</b>	<b>1403,0</b>	<b>10751,5</b>
	<i>Eksport</i>	161,5	26,6	0,0
	<i>Import</i>	3386,2	1376,4	10751,5
	<b>Litva</b>	<b>787,2</b>	<b>2781,5</b>	<b>2231,9</b>
	<i>Eksport</i>	185,1	0,0	270,1
	<i>Import</i>	602,1	2781,5	1961,8
	<b>Vetnam</b>	<b>0,1</b>	<b>5992,7</b>	<b>3390,1</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	5930,4	3319,7
	<i>Import</i>	0,1	62,3	70,04
	<b>Kanada</b>	<b>491,0</b>	<b>1028,2</b>	<b>1896,6</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	0,0	284,4
	<i>Import</i>	491,0	1028,2	1612,2
	<b>Bangladesh</b>	<b>0,0</b>	<b>551,4</b>	<b>2141,3</b>
	<i>Eksport</i>	0,0	551,4	2141,3
	<i>Import</i>	0,0	0,0	0,0



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA TASHQI SAVDO AYLANMASI

(2024-yil yanvar-iyul oylari ming AQSH doll.)\*

**Eng yuqori hajm,**  
ming AQSH dollari




**Eng quyi hajm,**  
ming AQSH dollari

Viloyat tashqi savdo aylanmasi tarkibida eng yuqori ulushini Nishon tumani 42,1 % ulush bilan 319782,1 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushini esa Muborak tumani 0,3 % ulush bilan 2382,7 ming AQSH dollarini tashkil etdi.

\* Tabiiy gaz va elektr energiyasi yetkazib berish, shuningdek, maxsus eksport bo'yicha rasmiy statistik ma'lumotlar, O'zbekiston Respublikasi viloyatlari, shaharlar va tumanlari bo'yicha taqsimlanmagan

## QASHQADARYO VILOYATINING TASHQI SAVDO AYLANMASIDA MDH MAMLAKATLARI VA BOSHQA XORIJIY DAVLATLARNING HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul oylarida ming AQSH dollari)



2024- yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida MDH davlatlarining ulushi 13,9 % ni tashkil etib, tashqi savdo aylanmasidagi ulushi, 2023- yilning mos davriga nisbatan 13,7 % ga kamaygan.



Qashqadaryo viloyatining boshqa xorijiy davlatlar bilan TSA 2024- yilning yanvar-iyul oylarida 2023- yilning mos davriga nisbatan 13,7 % ga ko'paygan va jami TSAdagi ulushi 86,0 % ni tashkil etdi.

Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasi 2024- yil yanvar-iyul oylari holatiga ko'ra, 105827,4 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport 80077,0 ming AQSH dollariga yetgan bo'lsa, import 25750,4 ming AQSH dollari qiymatida qayd etildi.



### QASHQADARYO VILOYATINING MDH MAMLAKATLARI BILAN UMUMIY TASHQI SAVDO AYLANMASIDAGI ULUSHI (2024- yil yanvar-iyul, ulushi, % da)

Rossiya – 63,1



Qozog'iston – 16,6



Tojikiston – 8,5



Ozarbajjon – 1,4



Ukraina – 1,7



Moldova  
Respublikasi – 1,5



Qirg'iz  
Respublikasi – 4,1



Turkmaniston – 0,8



Belarus  
Respublikasi – 2,1



Armaniston – 0,1




Qashqadaryo viloyatining MDH mamlakatlari bilan tashqi savdo aylanmasining eng yuqori hajmlari Rossiya (63,1 %), Qozog'iston (16,6 %) hamda Tojikiston (8,5 %) davlatlari bilan qayd etildi.



## QASHQADARYO VILOYATINING YEOIIGA A'ZO DAVLATLAR BILAN TASHQI SAVDO AYLANMASI

(yanvar-iyul oylarida ming AQSH dollari, ulushi, % da)



Qashqadaryo viloyatining Yevroosiyo iqtisodiy ittifoqiga a'zo davlatlar bilan tashqi savdo aylanmasi 91211,7 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Shundan eksport hajmi 66834,4 ming AQSH dollari, import hajmi esa 24377,3 ming AQSH dollariga yetdi.

Shuni takidlash lozimki, YEOIning a'zo davlatlari (Rossiya Federatsiyasi, Belarus Respublikasi, Qozog'iston, Armaniston va Qirg'iz Respublikasi) o'rtasida tovarlar va xizmatlar harakati, migrantlar harakatlanishi va kapital harakatining erkinligi ta'minlangan bo'lib, yagona bojxona tizimiga ega bo'lgan umumiy iqtisodiy hudud shakllantirilgan.



## QASHQADARYO VILOYATI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-iyul oylari)



Xalqaro iqtisodiy aloqalarning rivojlanishi eksportning barqaror o'sishiga ko'maklashadi va bu o'z navbatida ma'lum natijalarga erishish uchun zamin yaratadi. Mamlakatning eksport salohiyatini oshirish, eksportyorlarni davlat tomonidan qo'llab-quvvatlash, eksportbop mahsulotlar nomenklaturasini kengaytirish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasida, eksportyorlar soni 167 ta ga yetdi va ular tomonidan 330541,7 ming AQSH dollari qiymatini hamda (2023- yilning mos davriga nisbatan 47,1 % ga ko'paydi) tovar va xizmatlar eksport qilinishi ta'minlandi.



### XSST\* BO'YICHA EKSPORT TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyul oylari ulushi % da)



Qashqadaryo viloyatida tovarlar tashqi savdosi statistik ko'rsatkichlarini shakllantirishda, Tashqi iqtisodiy faoliyat tovar nomenklaturasi (keyingi o'rinlarda TIF TN) bilan birgalikda, Birlashgan Millatlar Tashkilotining Xalqaro standartlashgan savdo tasniflagichi (keyingi o'rinlarda – XSST) ishlatiladi. Bu o'z navbatida tahliliy maqsadlarda eksport va import qilinadigan tovarlarni 10 ta katta qismga guruhlash uchun imkon beradi. Tovarlarni XSST bo'yicha kodlashtirish, TIF TN va XSST o'rtasida o'tish kalitlari yordamida amalga oshiriladi.



## QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA EKSPORTI TARKIBI *(yanvar-iyul oylari yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'zgarish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan, % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami eksport</b>	<b>224646,6</b>	<b>330541,7</b>	<b>128,1</b>	<b>147,1</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar	36995,6	40302,6	182,2	108,9	16,4	12,2
Ichimliklar va tamaki	576,4	435,3	160,9	75,5	0,3	0,1
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xom ashyo materiallari	124,5	10,7	78,4	-	0,1	-
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar	30276,6	124133,9	3,8 m.	4,1 m.	13,5	37,6
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	82,5	1698,5	8,1	20,6 m.	0,0	0,5
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar	649,1	724,5	8,4 m.	111,6	0,3	0,2
Sanoat tovarlari	146693,9	157163,7	105,9	107,1	65,2	47,6
Mashinalar va transport asbob-uskunalar	4613,4	1750,4	3,0 m.	37,9	2,1	0,5
Turli xil tayyor buyumlar	2776,9	1912,6	-	68,9	1,2	0,6
Boshqa tovarlar	31,7	9,7	-	-	0,0	-
Xizmatlar	1961,4	2399,8	111,7	122,4	0,9	0,7

Eksport tarkibida tovarlar ulushi 99,3 % ni tashkil etib, ulardan sanoat tovarlari (47,6 %), mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar (37,6 %) va oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (12,6 %) hissasiga to'g'ri kelmoqda.

**QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO‘YICHA EKSPORTI TARKIBI**  
(2024- yil yanvar-iyul oylari)



XSST bo‘limi nomi

Ming  
AQSH  
dollari

2023- yilning  
mos davriga  
nisbatan,  
% da

**Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar**

40302,6

108,9

Sabzavotlar va mevalar

3072,4

10,7

**Yoqilg‘idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo**

10,7

0,0

Cho‘yan va po‘lat

10,5

8,7

O‘g‘itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo

-

-

Rangli metallar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar

0,2

4,9

**Mineral yoqilg‘i, yog‘lash moylari va shunga o‘xshash materiallar**

124133,9

4,1 m.

Neft va neft mahsulotlari va shunga o‘xshash materiallar

114163,7

3,8 m.

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>112708,8</b>	<b>117,5</b>
Yigirilgan to'qimachilik iplari, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	9944,1	117,7
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, yoki tayyorlangan buyumlar	3,6	67,9
Ruda bo'lmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	22,5	12,2
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	-	-
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunalari</b>	<b>1750,4</b>	<b>3,0 m.</b>
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	1571,7	36,1
Blokli binolar, suv o'tkazish, kanalizatsiya, isitish va yoritish uskunalari uchun armatura va mahkamlash moslamalari, boshqa joyda tasniflanmagan	178,7	67,3
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>1912,6</b>	<b>68,9</b>
Kiyim-kechaklar va ularning anjomlari	1774,0	139,2
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari, matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga o'xshash tikilgan mebellar	19,6	2,7 m.
<b>Xizmatlar</b>	<b>2399,8</b>	<b>111,7</b>





O'zbekiston tashqi savdo statistikasida sherik mamlakatlarga quyidagilar kiradi: olib kirishda-tovarlar kelib chiqqan mamlakat, agar kelib chiqqan mamlakat noaniq bo'lsa, jo'natib yuborgan mamlakat. Olib chiqishda - tovarlar yuboriladigan mamlakat hisoblanadi.

2024-yil yanvar-iyul oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan eksport ulushi 24,2 % ni tashkil etib, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 27,4 % ga ko'paygan.

## MDH VA BOSHQA DAVLATLARGA TOVAR VA XIZMATLAR EKSPORTI HAJMLARI DINAMIKASI

(yanvar-iyul oylari ming  
AQSH dollari)



 ■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

2024- yil yanvar-iyul oylarida tashqi savdo aylanmasida tovarlar va xizmatlar eksporti bo'yicha asosiy hamkorlarimiz Turkiya, Rossiya Federatsiyasi, XXR, Pokiston, AQSH, BAA va Tojikiston kabi davlatlar bo'lgan. Ularning umumiy eksportdagi ulushi 76,6 % ni tashkil etdi.



### VILOYAT EKSPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyul oylari % da)






## QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARGA AMALGA OSHIRGAN EKSPORTI HAJMI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yanvar-iyul oylari yillar kesimida)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Egallab turgan o'rni	
	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.	2023-y.	2024-y.
Turkiya	45105,9	50087,6	94,5	86,8	1	3
Rossiya Federatsiyasi	27463,4	50219,7	148,0	111,0	2	2
AQSh	12,9	88845,4	3,1 m.	3097,2 m.	37	1
XXR	5989,5	14582,4	49,1	190,8	7	6
Pokiston	10497,4	24596,3	2,6 m.	114,7	4	4
BAA	21177,4	16570,4	34,6 m.	81,6	3	5
Misir	4892,9	9254,4	7,0 m.	189,1	9	8
Eron Islom Respublikasi	3019,0	5639,5	36,6	186,8	12	11
Polsha	8294,5	6305,8	177,0	76,0	5	9
Tojikiston	1854,3	8401,5	5,0 m.	3,1 m.	14	10
Vetnam	5137,2	2692,0	3,9 m.	52,4	8	14
Qozog'iston	6939,2	14054,0	2,4 m.	129,9	6	7
Bangladesh	551,5	2141,3	-	3,9 m.	23	17
Afg'oniston	1861,9	3848,1	21,6	2,1 m.	13	13
Portugaliya	227,6	4267,2	-	16,8 m.	29	12
Marokash	1355,3	2452,5	-	157,2	15	15
Ozarbajjon	855,3	1375,0	75,9	119,7	18	20
Moldova Respublikasi	1095,8	1566,2	76,0	111,9	16	19
Hindiston	4017,3	1001,5	134,0	24,9	10	22
Ruminiya	0,0	2297,6	-	-	-	16



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA EKSPORTI

(2024- yil yanvar-iyul oylari ming AQSH doll.)\*



2023- y.

2024- y.

Viloyat eksporti tarkibida eng yuqori ulushni Nishon tumani 37,4 % bilan 123714,7 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Dehqonobod tumani 0,4 % bilan 1430,8 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI



Hukumat tomonidan qishloq xo'jaligi va bog'dorchilikni rivojlantirishga katta e'tibor qaratilayotgani bois eksport qilinayotgan mahsulotlar sifati va hajmi yildan-yilga ortib bormoqda. Jumladan, 2024- yil yanvar-iyul oylarida 101,3 ming tonna meva va sabzavotlar eksporti amalga oshirilgan bo'lib, ushbu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 2,3 martaga ko'paydi.









Meva-sabzavot mahsulotlarining asosiy eksport bozorlari Qozog'iston (31,7 %), Pokiston (17,0%), Rossiya (38,8 %) hamda Afg'oniston (8,1 %) davlatlari hissasiga to'g'ri kelgan.

2024- yil yanvar-iyul oylarida oziq-ovqat mahsulotlarining asosiy qismi bo'lgan 36,5 mln. AQSH dollari qiymatidagi meva-sabzavot eksport qilindi. Bu ko'rsatkich 2023- yilning mos davriga nisbatan 27,0 % ga ko'paydi va jami eksportdagi ulushi 11,0 % ni tashkil etdi.



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARI EKSPORTI

(2024- yil yanvar-iyul oylari o'zgarish sur'atlari, qiymatga nisbatan)

<p><b>Piyoz</b></p> <p>6,3 mln. AQSH dollari</p> <p>29,3 ming tonna</p> <p> 4,5 m ↑</p>	<p><b>Karam</b></p> <p>3,6 mln. AQSH dollari</p> <p>11,3 ming tonna</p> <p> 5,0 m. ↑</p>	<p><b>Loviya</b></p> <p>5,7 mln. AQSH dollari</p> <p>1,6 ming tonna</p> <p> 49,6 % ↓</p>	<p><b>Uzum</b></p> <p>3,5 mln. AQSH dollari</p> <p>0,6 ming tonna</p> <p> 32,4% ↓</p>
<p><b>Pomidor</b></p> <p>0,5 mln. AQSH dollari</p> <p>0,3 ming tonna</p> <p> 25,9 % ↓</p>	<p><b>Sabzi</b></p> <p>2,7 mln. AQSH dollari</p> <p>8,4 ming tonna</p> <p> 2,6 m. ↑</p>	<p><b>Bodring</b></p> <p>0,9 mln. AQSH dollari</p> <p>0,1 ming tonna</p> <p> 27,6 % ↓</p>	<p><b>Sitrus mevalar</b></p> <p>0,05 mln. AQSH dollari</p> <p>0,03 ming tonna</p> <p> 15,7 % ↓</p>



## MEVA-SABZAVOT MAHSULOTLARINING EKSPORT GEOGRAFIYASI (2024- yil yanvar-iyul oylari)

Davlatlar	Ming tonna	Ming AQSH dollari	Ulushi, % da *
 Pokiston	11,7	6215,8	17,0
 Rossiya	35,3	14169,9	38,8
 Afg'oniston	2,6	2978,3	8,1
 Qozog'iston	45,9	11588,8	31,7
 Iroq	0,8	328,3	0,9
 BAA	0,3	70,2	0,2
 Turkiya	0,02	15,4	0,0
 Boshqa davlatlar	4,7	1145,2	3,3

\* qiymat ifodasidan



2024- yil yanvar-iyul oylarida meva va sabzavotlar eksportining qiymat jihatidan eng katta hajmi Rossiya Federatsiyasiga to'g'ri keldi (meva va sabzavotlar eksporti umumiy hajmining 38,8 % ni), bu ko'rsatkich Iroq eksport hajmidan 43,1 martaga ko'p.





## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI



So‘nggi yillarda yengil sanoatda yuqori qo‘shilgan qiymatdagi mahsulotlar ishlab chiqarish rivojlanib bormoqda. Yengil sanoat iqtisodiy jihatdan O‘zbekiston uchun muhim soha bo‘lgani holda, aholi bandligining yuqori darajasini, shuningdek, sanoat salohiyatiga hamda davlatimizning xalqaro nufuziga hissa qo‘shilishini ta‘minlaydi.

To‘qimachilik mahsulotlarining eksporti hajmlarining oshishini bevosita paxta xomashyosini o‘rniga tayyor mahsulot ishlab chiqarish va qo‘shimcha qiymat yaratish maqsadida amalga oshirilgan islohotlar natijasi sifatida qarash mumkin.






Xususan, 2024- yil yanvar-iyul oylari yakuni bo‘yicha 156910,7 ming AQSH dollari to‘qimachilik mahsulotlari eksporti amalga oshirilib, umumiy eksportning 47,5 % ini tashkil etib, o‘tgan yilga nisbatan 7,6 % ga ko‘paydi.

Eksport qilingan to‘qimachilik mahsulotlari tarkibida kiyim-kechak (62,4 %), ipak,paxta,jundan tayyorlangan matolar (35,3 %) asosiy ulushni egallagan.



## TO‘QIMACHILIK MAHSULOTLARI EKSPORTI


(2024- yil yanvar-iyul oylari ming AQSH dollari)

	2023-y.	2024-y.
 Kiyim-kechak	7231,5	9306,5
 Sintetik, jun tolalar	-	-
 Ipak, paxta, jundan tayyorlangan matolar	6813,7	5262,4
 Sintetik ip kalava	34,4	344,2
 Paypoq mahsulotlari	-	-

Mamlakatimizda yangi ishlab chiqarish texnologiyalari va zamonaviy uskunalardan keng foydalanish, sohada sifat menejmenti tizimining joriy etilishi natijasida mehnat unumdorligini oshirishga xizmat qilmoqda. Bu, o'z navbatida, tayyor mahsulotlarga jahon bozorlarida o'z o'rnini topish imkonini beradi.



### XIZMATLAR EKSPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-iyul oylari ming AQSH doll.)



Xizmatlar eksporti hajmi 2399,8 ming AQSH dollarini yoki jami eksport hajmining 0,7 % ini tashkil etib, 2023- yilning mos davriga nisbatan 22,4 % ga ko'paydi. Xizmatlar eksporti tarkibining asosiy ulushi moliyaviy xizmatlar (75,7 %), boshqa xizmatlar (23,9 %) va safarlar (turizm) (0,4 %) hissasiga to'g'ri kelgan.



## QASHQADARYO VILOYATINING IMPORTI



2024- yilning yanvar-iyul oylarida import hajmi 428367,9 ming AQSH dollarini va 2023- yilning mos davriga nisbatan 3,5 martaga ko'paydi. Import tarkibida eng katta ulush, mashinalar va transport asbob-uskunalari (75,0 %), kimyoviy vositalar va boshqa toifalarga kiritilmagan shunga o'xshash mahsulotlar (12,5%) hamda oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar (7,1 %) hamda hisobiga to'g'ri keldi.



### XSST BO'YICHA IMPORT TARKIBI (2024- yil yanvar-iyul oylari ulushi, % da)



Tovarlar importi dinamikasi tahliliga ko'ra, 2024- yilning yanvar-iyul oylarida import qilingan tovarlar hajmi, o'tgan yilning mos davriga nisbatan 307415,1 ming AQSH dollariga ko'paydi va 428367,9 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## QASHQADARYO VILOYATINING XSST BO'YICHA IMPORTI TARKIBI *(yanvar-iyul oylari yillar kesimida)*

XSST tarkibi	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmga nisbatan. % da	
	2023	2024	2023	2024	2023	2024
<b>Jami import</b>	<b>120952,8</b>	<b>428367,9</b>	<b>69,5</b>	<b>3,5 m.</b>	<b>100,0</b>	<b>100,0</b>
<i>shu jumladan:</i>						
Oziq-ovqat mahsu lotlari va tirik hayvonlar	8588,6	30 523,4	112,0	3,6 m.	7,0	7,1
Ichimliklar va tamaki	33,7	208,8	-	6,2 m.	-	0,1
Yoqilg'idan tashqari nooziq-ovqat xomashyo materiallari	5716,7	9 885,8	77,0	172,9	4,8	2,3
Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash Materiallar	6097,5	3 875,4	106,0	63,6	5,0	0,9
Hayvon va o'simliklar moylari (yog'lari), yog'lar va mumlar	858,3	110,5	-	12,9	0,7	-
Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash Mahsulotlar	18234,6	53 542,9	92,4	2,9 m.	15,4	12,5
Sanoat tovarlari	3202,5	2 222,1	63,0	69,4	2,7	0,5
Mashinalar va transport asbob uskunalari	68783,7	321 239,3	60,0	4,7 m.	56,6	75,0
Turli xil tayyor buyumlar	4504,4	3 096,6	-	68,7	3,8	0,7
Boshqa tovarlar	3664,8	3 437,8	-	93,8	3,0	0,8
Xizmatlar	1268,0	225,3	77,9 m.	17,8	1,0	0,1



## XSST BO'LIMI BO'YICHA AYRIM MAHSULOTLAR IMPORTI TARKIBI (2024- yil yanvar-iyul oylari)

XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Oziq-ovqat mahsulotlari va tirik hayvonlar</b>	<b>30523,4</b>	<b>3,6 m.</b>
Sabzavotlar va mevalar	26726,0	17,3 m.
Tirik hayvonlar	3174,6	95,2
Donli ekinlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	1903,9	44,5
Hayvonlar uchun ozuqalar (maydalanmagan donlardan tashqari)	875,1	2,7 m.
Shakar, shakardan tayyorlangan mahsulotlar va asal	109,3	15,6 m.
Kofe, choy, kakao, ziravorlar va ulardan tayyorlangan mahsulotlar	21,4	-
<b>Yoqilg'idan tashqari noziq-ovqat xomashyo materiallari</b>	<b>9885,8</b>	<b>172,9</b>
Yog'li urug'lar va yog'li mevalar	345,0	17,2
Yog'och-taxtalar	578,3	2,1 m.
O'g'itlar uchun xomashyo va mineral xomashyo	50,8	2,9
Hayvonlar va o'simliklardan kelib chiqqan xomashyo materiallari	110,5	3,1 m.
<b>Mineral yoqilg'i, yog'lash moylari va shunga o'xshash materiallar</b>	<b>3875,4</b>	<b>63,6</b>
Neft va neft mahsulotlari va shunga o'xshash materiallar	3875,4	63,6
Tabiiy yoki sun'iy gaz	-	-
<b>Kimyoviy vositalar va shunga o'xshash mahsulotlar</b>	<b>53542,9</b>	<b>2,9 m.</b>
Boshqa joyda tasniflanmagan kimyoviy materiallar va mahsulotlar	40109,3	12,8 m.
Birlamchi shakldagi plastmassalar	5633,5	128,6
Organik kimyo moddalari	2446,4	54,0
Tibbiyot va farmatsevtika mahsulotlari	703,3	88,5
Noorganik kimyo moddalari	2445,5	167,6
Efir moylari, rezinoidlar va attorlik moddalari; hojatxona preparatlari, polirovkalash va yuvish vositalari	5,2	50,0
Birlamchi shaklda bo'lmagan plastmassalar	-	-
Bo'yovchi va terini oshlovchi moddalar va bo'yoqlar	-	-




XSST bo'limi nomi	Ming AQSH dollari	2023- yilning mos davriga nisbatan, % da
<b>Sanoat tovarlari</b>	<b>14569,2</b>	<b>69,4</b>
Cho'yan va po'lat	7636,9	115,3
Boshqa joyda tasniflanmagan metallardan tayyorlangan buyumlar	0,1	-
Boshqa joyda tasniflanmagan rezina buyumlar	-	-
Rangli metallar	3625,3	6,8 m.
Probka va daraxtdan tayyorlangan buyumlar (mebeldan tashqari)	0,8	-
Ruda bulmagan qazilmalardan tayyorlangan mahsulotlar	1589,5	56,0
To'qimachilik yigirilgan ipi, matolar, tayyor buyumlar va shunga o'xshash mahsulotlar	1106,8	63,6
Qog'oz, karton va qog'oz massasi, qog'oz yoki kartondan tayyorlangan buyumlar	161,4	50,1
<b>Mashinalar va transport asbob-uskunolari</b>	<b>321239,3</b>	<b>4,7 m.</b>
Aniq sohalar uchun maxsus mo'ljallangan mashinalar	-	-
Elektr mashinalari, apparatlari va jihozlari va ularning elektr qismlari	-	-
Sanoat uchun maxsus bo'lmagan mashinalar va ularning detallari	-	-
Avtomobillar (havo podushkalaridagi transport vositalari ham)	-	-
Kanslyariya mashinalari va ma'lumotarni avtomatik ravishda qayta ishlash uchun asbob-uskunalar	-	-
Energiya generatori mashinalari va asbob-uskunalar	-	-
Elektr aloqasi, ovozni yozish va ovozni eshittirish apparaturalari va uskunalari	141508,4	16,3 m.
Metallarni qayta ishlash mashinalari	-	-
Boshqa transport uskunalari	178151,0	3,5 m.
<b>Turli xil tayyor buyumlar</b>	<b>3096,6</b>	<b>68,7</b>
Maxsus, ilmiy va nazorat asboblari va apparatlari	-	-
Boshqa joyda tasniflanmagan har xil tayyor buyumlar	2492,1	57,3
Mebel va uning qismlari, yotarjoy buyumlari matraslar, matraslar uchun tirgaklar, yostiqlar va shunga oxshash tikilgan mebellar	604,5	115,4

Tashqi savdo statistikasini yuritish metodologiyasiga ko'ra, tashqi savdo statistikasiga tranzit tovarlar, mamlakatga vaqtincha olib kirilgan yoki undan vaqtincha olib chiqilayotgan tovarlar kiritilmasligi nazarda tutilgan.

 2024-yil yanvar-iyul oylari natijalariga ko'ra MDH mamlakatlaridan import ulushi 6,0 % ni tashkil etib, 2023-yilning mos davriga nisbatan 21,6 % ga kamaydi.

### MDH VA BOSHQA DAVLATLARDAN TOVAR VA XIZMATLAR IMPORTI HAJMLARI DINAMIKASI (yanvar-iyul oylari ming AQSH dollari)



■ Boshqa davlatlar ■ MDH davlatlari

 2024- yil yanvar-iyul oylarida Qashqadaryo viloyati 60 ta davlatdan tovar va xizmatlar importini amalga oshirdi. Yetti yirik hamkor davlatlar (Turkiya, Qirg'iziston, Germaniya, Niderlandiya, XXR, Rossiya Federatsiyasi va Yaponiya) jami importning 87,4 % ni tashkil etdi.



### VILOYAT IMPORTIDA ASOSIY HAMKOR DAVLATLARNING ULUSHI (2024- yil yanvar-iyul oylari % da)






## QASHQADARYO VILOYATINING ASOSIY HAMKOR DAVLATLARDAN AMALGA OSHIRGAN IMPORTI HAJMLARI VA O'SISH SUR'ATLARI *(yillar kesimida yanvar-iyul oylari holati)*

Davlatlar	Ming AQSH dollari		O'sish sur'ati, % da		Umumiy hajmdagi o'rni	
	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.	2023- y.	2024- y.
XXR	24727,8	203333,1	14,3	7,0 m.	1	1
Niderlandiya	772,1	36075,0	72,5	38,4 m.	17	3
Ekvador	141,6	16145,5	68,8	114,0 m.	27	6
Germaniya	3622,5	28779,9	49,2	4,5 m.	6	4
Rossiya Federatsiyasi	8608,1	16570,0	72,3	115,9	4	5
Pokiston	966,2	1310,3	5,2 m.	7,1 m.	15	7
Turkiya	9060,4	69687,5	52,4	70,2	2	2
Yaponiya	1321,6	16480,7	39,0	6,6 m.	10	6
Litva	2465,5	1961,8	11,3 m.	77,9	7	12
Hindiston	875,4	4767,9	37,7	4,5 m.	16	9
Kanada	725,0	1612,3	147,7	2,2 m.	18	13
Qozog'iston	8995,5	3608,1	118,6	26,5	3	11
Eron Islom Respublikasi	1053,2	1910,2	35,0	102,6	14	16
Fransiya	549,0	732,8	138,8	133,5	20	19
Qirg'iz Respublikasi	2267,7	3396,5	83,7	125,9	8	10
AQSh	1057,9	2626,5	2,1 m.	144,7	13	14
BAA	29,7	6867,3	14,1 m.	28,1 m.	38	18
Qo'shma Qirollik	150,6	284,9	6,2 m.	189,0	26	25
Finlandiya	1,2	243,6	2,4 m.	203,0 m.	52	27
Italiya	1305,9	1292,2	88,3	76,2	11	17



## QASHQADARYO VILOYATINING HUDUDLAR KESIMIDA IMPORTI

(2024- yil yanvar-iyul oylari ming AQSH dollari)




Viloyat importi tarkibida eng yuqori ulushni Nishon tumani 45,7 % bilan 196067,4 ming AQSH dollarini, eng quyi ulushni esa Muborak tumani 0,06 % bilan 253,7 ming AQSH dollarini tashkil etdi.



## XIZMATLAR IMPORTI TARKIBI

(2024- yil yanvar-iyul oylari ming AQSH dollarida)




2024- yilning yanvar-iyul oylari yakuni bilan xizmatlar importi hajmi 225,3 ming AQSH dollarini tashkil etdi. Xizmatlar importi tarkibining asosiy ulushini transport xizmatlari (97,8 %) tashkil etdi.



## SANOAT MAHSULOTLARI IMPORTI



2024- yil yanvar-iyul oylarida import tarkibida sanoat mahsulotlari tovarlari hajmi 2222,1 ming AQSH dollarini tashkil etib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan 69,4 % ga kamaydi hamda, importning umumiy hajmidagi ulushi 0,5 % ga yetdi.



### SANOAT MAHSULOTLARI IMPORT QILINGAN ASOSIY HAMKOR DAVLATLAR

(2024- yil yanvar-iyul oylari hajmi, ulushi, % da)

280,0 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 12,6 %

111,1 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 5,0 %

813,3 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 36,6%



**Qirg'iziston**



**Rossiya  
Federatsiyasi**



**XXR**

66,7 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 3,0 %



**Qozog'iston**

33,3 ming  
AQSH doll.  
ulushi – 1,5 %



**Eron**



2024- yil yanvar-iyul oylarida sanoat mahsulotlari importi hajmi o'tgan yilning shu davriga nisbatan -980,4 ming AQSH dollariga kamaydi. Ushbu tovarlarni Qashqadaryo viloyatiga yetkazib berishning asosiy qismi Qirg'iziston- 280,0 ming AQSH dollari (12,6 %) XXR- 813,3 ming AQSH dollari (36,6 %), Rossiya Federatsiyasi- 111,1 ming AQSH dollari (5,0 %), Qozog'iston- 66,7 ming AQSH dollari (3,0 %), Eron – 33,3 ming AQSH dollari (1,5 %) kabi davlatlarga to'g'ri keldi.